


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University


1/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

1/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 1, yanvar

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Akhmedova M.B., Aliyeva G.H.	Gender asymmetry in language: cultural and linguistic reflections in uzbek, russian, and english	4
Ahmadova U.Sh.	Perifrazalar olamni idrok etish usuli sifatida	7
Jabborova Z.M.	Zamonaviy publisistik janrlarda mediadiskurs tushunchasi	13
Maqsudova M.U.	The main role of stress in compound words in english and uzbek	16
Mavlonova U.Kh.	Linguopragmatic conditioning of the politeness category in the works of ulugbek hamdam and zadie smith	20
Narzullayeva F.O., Tuymuradova R.R.	Somatic phraseological units in english and uzbek proverbs	25
Radjabova D.A.	Mineralogical terms in english and uzbek languages: their etymology and stylistic functions	29
Maxmudova K.S.	The role of pragmatics in facilitating the understanding of literary texts	35
Ataboyev N.B., Abdullayeva N.A.	Translation of religious prayers in english and uzbek languages and their corpus analysis	40
Axmedova G.A.	Main features of pragmatics in language and linguistics	50
Mirzatillayeva Z.R., Aliyeva N.X.	Kognitiv tilshunoslik va uning fanlararo bilim tizimida rivojlanishi	54
Sharapadinova D.S., Eshtuhtarova B.B.	Linguocultural features of phraseological units expressing emotions	59
Anvarova Sh.V.	Lexical - thematic field of ornithonyms in the languages	63
Baxtiyorova M.B.	Atoqli otlarning lingvomadaniy tahlili va ularning funksional xususiyatlari	68
Maxmudova K.S.	The role of pragmatics in facilitating the understanding of literary texts	72
Nuritdinova N.N.	Fransuzcha burun tovushli soʻzlarning oʻzbekcha imlosi	77

Qutbiddinova N.D.	Somatic phraseologisms in english and uzbek languages	82
Sheraliyeva Sh.I.	Ingliz, fransuz va o‘zbek tillarida avtomobil terminlarining qiyosiy tahlili	86
Vaxidova F.S., Urunova I.N.	Hunarmandchilikka oid terminlarning leksik tizimda tutgan o‘rni	91
Yo‘ldosheva M.B.	Psixolingvistikaning obyekti, predmeti va ta’riflari	95
Ахмедова Ф.И.	Лингвистическая идентификация через неологизмы: как язык помогает создавать новую социальную идентичность	100
Кодирова Ф.Ю.	Основные вопросы субстантивных словосочетаний	105
Abduraxmonov X.A.	Ingliz tilidagi mavhum otlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda uslubiy muammolar	109
Barotova S.U.	The use of proverbs for increasing speech effectiveness in english	113
Narzullayeva F.O., Xikmatova M.U.	Pragmatic features of somatic expressions in english and uzbek languages	118
Norova M.F.	Eskirgan so‘z va iboralar	124
Olimova Sh.S., Davlatova M.H.	Developing the ability to use modal units in speech activity	128
Akramov I.I.	The linguistic representation of worldviews in western and eastern (turkic) aphorisms	132
Saidov X.Sh., Najmiyev M.M.	Nutqiy tejamkorlikning tilshunoslikdagi o'rni	136
Vaxidova F.S., Faxriyeva D.O.	Ziyorat turizmi lingvistik birliklarning pragmatik funksiyalari	140
Ollomurodov A.O.	Kinodiskurs qayta kodlash vositasi sifatida	144
Qobilova N.S.	Tejamkorlik tamoyilining til sathlarida o‘rganilishi	148
Saidova M.U.	Exploring lexical and grammatical cohesion in O.Henry’s ‘Two thanksgiving day gentlemen’	158

TEJAMKORLIK TAMOYILINING TIL SATHLARIDA O'RGANILISHI

Qobilova Nargisa Sulaymonovna;
 Buxoro davlat universiteti dotsent, PhD
n.s.qobilova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada tejamkorlik tamoyili tilshunoslik fanida ko'pchilik olimlar tomonidan tilning asosiy tendentsiyalaridan biri sifatida e'tirof etilgani, mazkur tamoyilning mohiyati talaffuz tezligi va yengilligiga bo'lgan intilish, har bir fikrni yetarli darajadagi aniqlikda ifoda etish imkoniyati to'liq saqlangan holda tilning leksik-grammatik jihatdan tez va yengil idrok qilinishi va o'zlashtirilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, tamoyil, og'zaki nutq, tejamkorlik tamoyili, tadqiqot, nutq faoliyati, moslashuvchanlik.

ИЗУЧЕНИЕ ПРИНЦИПА ЭКОНОМИИ НА ЯЗЫКОВЫХ УРОВНЯХ

Аннотация. В данной статье рассматривается принцип экономии, который большинством ученых-лингвистов признается одним из основных направлений в языке, а суть этого принципа заключается в стремлении к скорости и легкости произношения, умении выразить каждую мысль с достаточной точностью. При этом полностью сохраняется лексическая и грамматическая составляющая, анализируется быстрое и легкое восприятие и усвоение.

Опорные понятия: теория, принцип, наблюдение, разговорная речь, принцип экономии языка, процесс общения, речевая деятельность.

STUDYING THE PRINCIPLE OF ECONOMY IN LINGUISTIC BRANCHES

Abstract. This article analyzes the fact that the principle of economy is recognized by most scholars in linguistics as one of the main tendencies of language, the essence of this principle is the desire for speed and ease of pronunciation, the ability to express each thought with sufficient accuracy, while fully preserving the ability to quickly and easily perceive and master the lexical-grammatical aspects of the language.

Keywords: theory, linguistics, principle, monitoring, speech, structural components, principles of economy, speech activity.

Til evolyutsiyasi jarayonida tilning lug'at tarkibi bilan bir maromda tovush tizimi ham muntazam o'zgarib boradi: tovushlar soni tafovutlanadi, yangi tovush yaratish ko'nikmalari shakllanadi va h.k.

Til evolyutsiyasining fonetik nazariyasi sohasida izlanishlar olib borgan olim Y.D.Polivanovning o'yallari tilni jamoa a'zolarini birlashtiruvchi mehnat faoliyati sifatida tushunish asosida rivojlangan [1,119]. Nutq jarayoni tarkibiga u "fonatsiya" va "eshitish" (yoki "appersepsiya") aktlarini kiritadi. Fonatsiya akti vazifasiga "muayyan belgilarni minimum energiya sarflagan holda eshitiladigan (va ajratib olinadigan) akustik natija yaratish" kiritiladi. Albatta, fonatsiya akti kerakli kuch va aniqlikda amalga oshiriladi. Olimning fikricha, tejamkorlik istalgan nutq mehnat faoliyati xususiyati hisoblanadi. "Bizning fonetik faoliyatimizning o'ziga xos jihati" sanalgan maksimum tejamkorlik doim ham istalgan so'zlashuv jarayonining zaruriy omili bo'la olmaydi.

Fonatsion energiya tejamkorligi deganda, Ye.D.Polivanov muayyan tovush kompleksi fonatsiyasi uchun zarur bo'ladigan vaqt tejamkorligi bilan bir qatorda alohida artikulyasiyalar qisqarishini, kuch tejamkorligini nazarda tutadi [2,167]. Ayni chog'da fonatsiya uchun zaruriy vaqt tejamkorligidan tashqari alohida artikulyasiyalar qisqarishi har doim ham nutq faoliyati uchun foydali tejamkorlik bo'lavermasligini Ye.E.Polivanov qayd etadi. So'zlovchining tez gapirishi me'yoriy tempdagi nutqdan ko'ra qiyinroq bo'lishi va tez bajariladigan tafakkur operatsiyalarini talab qilishi mumkin.

Umuman olganda, tildagi tovush o'zgarishlarini Ye.D.Polivanov bir tovush ichida sodir bo'luvchi va boshqa tovushlarga ta'sir ko'rsatmaydigan o'zgarish sifatida qaraydi. Aniqrog'i bir tovush o'zgarishi tilning fonetik tizimiga ta'sir etmaydi. O'z yo'nalishini aniqlovchi bu turdagi o'zgarishlarning umumiy tamoyili "tovush hosil qilish qiyinchiliklarini kamaytiruvchi" tejamkorlik tamoyilidir. Bunda spirantizatsiya (affrikatlardagi portlovchi elementning yo'qolishi), ayrim tillardagi tiloldi lablangan unlilar delabializatsiyasi, [i] tovushidan oldin undoshlarning yumshalishi kabi fonetik hodisalar nazarda tutiladi [1,121].

Talaffuz energiyasi tejamkorligi tendensiyasini, Ye.D. Polivanov ayrim soʻzlarning turli shaklda, yaʼni baland yoki past ovozda, tez yoki sekin, ravon yoki mujmal, pingʻillab, hattoki burun orqali talaffuz etilsada, aynan oʻsha soʻzning oʻsha maʼnoda tushunilishi holatlari orqali izohlaydi.

Yana bir boshqa tadqiqot ishida e.D.Polivanov talaffuz (fonatsion) energiyasining qisqarishi tendensiyasining baʼzan maksimal darajada namoyon boʻlishini qayd etadi. [3,120-121] Bunga misol tariqasida tez-tez ishlatiladigan, maʼnosi oson fahmlanadigan, boshqa soʻzlar bilan aralashtirib yuborilmaydigan soʻzlarni keltiradi: rus. *здравствуйте* → *здравствуйте* → *здравте* → *здравст* → *здрав* → *драс* → *эсс* → *сс* ёки *зосударь* → *осударь* → *сударь* → *сда* → *ста* [*пожалуйста* soʻzidagi]; oʻzb. taqsir → tasir → tas. Odatda uchraydigan minimal darajali fonatsion energiyaning qisqarishi tendensiyasiga: murakkab tovush birikmalaridan bir tovushning tushib qoldirilishi, masalan, rus. *солнсе* → *сонсе*, lot. *yest* fransuz tilida E shaklida, Augustus «avgust» yagona tovush u ga aylangan (frans. *Août*) va h.k.; qiyintalaffuzli tovushlarning osonlariga almashtirilishi (keng tarqalgan affrikatlarning spirantizatsiyasi S→S, S→SH va b.) kiradi.

Jarangli undoshlarning jarangsizlardan oldin va soʻz oxirida jarangsiz, yaʼni jarangsizlantirishga qulay pozitsiyalarda talaffuz etilishini Ye.D.Polivanov "fonatsion energiya tejamkorligi" tendensiyasi taʼsirining natijasi deb hisoblaydi. Jarangli undoshlarning jarangsizlardan oldin va soʻz oxirida jarangsiz, yaʼni jarangsizlantirishga qulay pozitsiyalarda talaffuz etilishini Ye.D.Polivanov "fonatsion energiya tejamkorligi" tendensiyasi taʼsirining natijasi deb hisoblaydi, qiyoslang: rus. *лоб* – *лоп*, *муж* – *муш*, *воз* – *вос*, *трубка* – *трупка*, *сказка* – *скаска* va h.k. [3, 122]

"Tejamkorlik tendensiyasi" termini orqali Y.D.Polivanov odatda talaffuz harakatlarini qisqartirish yoxud yengillashtirishni nazarda tutadi. Fonatsion quvvat tejamkorligini olim murakkabdan soddalashtirish evolyutsiyasiga ega boʻlgan quyidagi holatlarda ham kuzatadi: uch yoki toʻrt tovushdan iborat soʻzlar ikki hatto bir tovushga aylanadi, masalan, h.-ye. *esti* → lot. *yest* → frans. *ye* [-ye(st)].

Shunday qilib, ikki yoʻnalishdagi fonetik oʻzgarishlarga muvofiq Ye.D.Polivanov tejamkorlikning ikki turini belgilaydi: 1) faqat fonatsion tejamkorlik (keyinchalik, "talaffuz qulayligi" [1,119] deb yuritila boshlandi) - har bir nutq aktida voqelanadi va fonetik jihatdan muhim boʻlmaydi, hamda 2) "psixik faoliyat tejamkorligi" - nutq amaliyotidan impuls oladi, biroq muayyan fonema yoki fonemalar kompleksining uchrashish darajasining statistik bahosi bilan ham bogʻliq boʻladi.

I.A.Boduen de Kurtene tadqiqotlarida esa tejamkorlik tamoyili asosan tovushlarning (faqat fonemalarning) oʻzgarishi qulaylikka boʻlgan intilish orqali ifodalangan fonetik hodisalar tahlilida namoyon boʻladi. Shundan kelib chiqqan holda, murakkab tovushlarning osonlariga almashtirilishi yoki umuman yoʻqolib ketishi tushuntiriladi. Bu jarayon, olimning fikricha, quyidagi shaklda amalga oshadi: kuchsiz fonemalar avloddan avlod oʻtganda avvalboshda talaffuz etiladi, keyinchalik talaffuzdan chetda qolib faqat nazarda tutiladigan va bora bora til markazidan butunlay yoʻqolib ketadi. Buning ustiga Boduen xalq ogʻzaki nutqida uchraydigan dissimilyasiya hodisasini ham keltiradi: *lekrut* → *rekrut*, *sekletar* → *sekretar* va b.

Til evolyutsiyasi, jumladan, tejamkorlik prinsipi masalasi yechimida oʻz zamondoshlaridan ilgarilagan holda I.A.Boduen de Kurtene fonatsion faoliyat tejamkorligiga intilish samarasi oʻlaroq istalgan koʻrinishdagi qisqarish yoki soddalashtirish faqat markaziy miya tizimida toʻsiqqa uchramasagina mumkin sanalishini taʼkidlaydi. Bu esa I.A.Boduen de Kurtene tomonidan tejamkorlik tamoyili nazariyasiga kiritilgan muhim aniqlik sanaladi. Bunda olim tildagi tejamkorlik tamoyiliga doimo notejamkorlik tamoyili qarama-qarshi turishini nazarda tutadi va ularning oʻzaro harakatini umumlisoniy tendensiya sifatida qabul qilish lozim, zero bu oʻzaro harakat istalgan til evolyutsiyasining dinamik xarakterini belgilaydi.

Tovushlarning qisqarishi (masalan, unlilar) agar ular tilda kommunikativlik nuqtayi nazaridan ortiqchalik kasb etsagina sodir boʻladi. Boshqacha aytganda, tovush tushirib qoldirilishi tinglovchiga soʻz maʼnosini anglab olishda qiyinchilik tugʻdirmasligi lozim. Odatda, tez-tez qoʻllaniladigan va koʻp energiya talab qiladigan soʻzlar talaffuzida ayniqsa kuchli qisqartirish yuzaga keladi (masalan, rus. «grit» - «govorit» oʻrniga, «chēk» - «chelovek» oʻrniga, «sudar» - «gosudar» oʻrniga va b.).

I.A.Boduen de Kurtene tejamkorlik deganda faqat fonatsion va yoki faqat auditsiya tejamkorligini tushunmaslik kerakligini uqtiradi. tejamkorlikning har bir turi boshqalari bilan oʻzaro bogʻliqdir. Demak, fonatsion tejamkorlik aqliy miya faoliyatiga zarar yetkazadigan boʻlsa bunday tejamkorlik turi hech qachon yuzaga kelmaydi. Til oʻzgarishlarini kuzatar ekan olim bola tomonidan ota-onasining (va oʻzi oʻsgan, oʻqigan, gaplashadigan muhitning) tilini oʻzlashtirishi jarayonining ahamiyatiga alohida eʼtiborini qaratadi. Bolalar tilida noqulay tovush birikmalaridan qochishga va ularni nisbatan qulayroq shakllarga oʻzgartirishga intilish borligi kuzatiladi. Bolalar tilidagi bunday tendensiya bora-bora (bir qancha avloddan keyin) tildagi tarixiy oʻzgarishlarga olib keladi.

Keyinchalik bir qator yetuk tilshunos olimlar va shu jumladan, Ye.D.Polivanov tadqiqotlarida ushbu g'oyaning qo'llab quvvatlanishi I.A.Boduen de Kurtene tomonidan ilgari surilgan mazkur g'oyaning qanchalik ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi.

Ilk bor I.A.Boduen de Kurtene shakllarning soddalashtirilishiga asoslangan tilning umumiy rivojlanishi orqali tejamkorlik tamoyili nazariyasini asoslab berdi. Ma'lumki, shakllarning soddalashtirilishi haqida olimning e'tirofiga qadar ko'plab tilshunoslar gapirishgan, biroq Boduen birinchi marta soddalashtirishga bo'lgan intilishni umumiy tejamkorlik tamoyili bilan bog'lagan holda tushuntiradi.

Til o'zgarishlari tahlilining fonetik aspekti I.I.Boduen de Kurtene va uning izdoshlaridan Ye.D.Polivanov izlanishlarida fundamental tadqiq qilingan holda, keyinchalik boshqa olimlar tomonidan davom ettirildi. Jumladan, L. Blumfild fonetik jarayonlarni, masalan assimilyasiyalarni "unlilar va boshqa ochiq tovushlarning kuchsizlanishi" va b., nutq tovushlari artikulyasiyasidagi tejamkorlik deb ataydi. Bundan tashqari, L.Blumfildning qayd etishicha, german va slavyan tillaridagi sr tovush birikmalari orasida t tovushining paydo bo'lishida yana bir qo'shimcha artikulyasiya paydo bo'lgandek tuyuladi. Holbuki, ushbu holatda hech qanday qo'shimcha artikulyasiya bo'lishi mumkin emas, balki vaqtinchalik artikulyasiyalarning tadrijiy artikulyasiyalarga almashtirish hodisasi sodir bo'lishi kuzatiladi. Buning ustiga tadrijiy artikulyasiyalarni amalga oshirish vaqtinchalik artikulyasiyalardan ko'ra shubhasiz osonroq kechadi.

L.Blumfild g'oyalarining ahamiyati shundaki, bunda tejamkorlik tamoyili va "talaffuz harakatlarining soddalashtirilishi" (ya'ni, tejamkorlik) tushunchasi o'z ichiga yanada "mayda", "ikir-chikir" tushunchalarni oladi: "fonetik tizimning soddalashtirilishi", "til shakllarining qisqarishi" va h.k.

O'zidan oldingi olimlar (O. Yespersen, I.A. Boduen de Kurtene, Ye.D. Polivanov, SH. Balli, E. Sepir va b.) kabi L.Blumfild umumiy tovush o'zgarishlarining artikulyasiyani soddalashtirishga tomon yo'nalishiga e'tibor qaratadi. Shuningdek, L.Blumfild fonetik o'zgarishlar haqida gapirar ekan, ularning tarixiylik nuqtayi nazaridan "bir instiktusti variantning boshqasiga zarar yetkazgan holda asta-sekin qo'llanilishi"ga e'tiborni qaratadi.

Aynan shu yondashuvni A.Martining "minimal avtonom sintagma" to'g'risidagi g'oyasida uchratamiz. Bu g'oya unli va undosh birikmasining bo'g'inda - ifoda planining minimal sintagmasida namoyon bo'ladi. A.Martining tejamkorlik tamoyili nazariyasi oldingi to'plangan ilmiy an'analarning mantiqiy davomi sifatida yuzaga keldi. O'zining mashhur "Fonetik o'zgarishlarda tejamkorlik tamoyili" nomli tadqiqot ishida A.Martine taniqli olimlar P. Passi, G. Suyit, O. Yespersen, M. Grammon va b. kabi o'tmishdoshlarini alohida tilga oladi.

Tejamkorlik tamoyili A.Martining ilmiy izlanishlarida avvalambor, fonetik sathdagi faktlarga asoslangan. Uning fikricha, har bir tushunchaning bir nechta tovush birikmasidan iborat ifodasi mavjud. Agar har bir tushuncha qismlarga bo'linmaydigan muayyan tovush hosilalariga birlashtirilganda edi, insonda shunga mos holda qanaqangi eshitish va talaffuz imkoniyatlari kerak bo'lishini tasavvur qilish mushkul. Olimning qayd etishicha, tejamkorlik tamoyili nuqtayi nazaridan fonemalarning bir biriga nisbatan joylashishi muhim ahamiyatga ega.

J.Vandriyes kabi A.Martine ham fonemalarning qo'llanilish chastotasining orttirilishi bilan ularning farqlash va ekspressivlik darajasi qisqarib boradi yoki yo'qolib ketishini ta'kidlaydi.

Nutq tejamkorligi tamoyili nuqtayi nazaridan fonemalar (yoki fonema birikmalari) boshqa fonemalar bilan birika olish qobiliyatiga ko'ra boshqalariga nisbatan katta farqlanish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

Oldingi olimlar g'oyalarini davom ettirgan holda A.Martine tilning fonema birikmalarini soddalashtirishga bo'lgan intilishini qayd etadi. Tilshunos ayrim tillarda ikkilangan undoshlarning soddalashtirilishi kabi holatlarga to'xtalib o'tadi.

A.Martining fikriga ko'ra, kombinator o'zgarishlar (assimilyasiya, dissimilyasiya, akkomodatsiya va b.) tejamkorlik tamoyili bilan bevosita bog'liq bo'lib, lingvistik tejamkorlik nuqtayi nazaridan kombinator o'zgarishlar soddagina tuyulsada, aslida kontekstning muayyan fonemaga nisbatan bosimi baribir chegaralangan bo'ladi.

Shunday qilib, fonetik-fonologik sath evolyutsiyasidagi tizimli xususiyatga ega bo'lgan omil bir yo'nalishli, to'g'ri chiziqli xarakterli kuchga ega emas. Paradigmatika va sintagmatika, to'g'ri chiziqli birliklar va urg'u, fonema va bo'g'in, bo'g'in va fonetik so'z - hammasi o'zaro bog'liq bo'lib, tejamkorlik xarakterining nutqiy artikulyasion-akustik manzarada voqelanishiga sabab bo'ladi.

Leksik tejamkorlik tamoyiliga oid muammolar tilshunos olimlarni oldindan qiziqtirib keladi. Bu borada taniqli olimlardan G. Kursius, Spenser, G. Paul, O. Yespersen, I.A. Boduen de Kurtene, N.V. Krushevskiy, V.A. Bogoroditskiy va boshqalar alohida izlanishlar olib borishgan.

Y.D.Polivanov o'zidan oldingi olimlardan farqli holda, bu masalaga atroflicha to'xtalib o'tadi. U tejamkorlik tamoyili muammolarini turli til sathlarida, jumladan, lug'at boyligiga (va frazeologiya) alohida ahamiyat qaratgan holda leksik sathda tadqiq etadi. Olimning fikricha [1,286], ushbu sath "muayyan jamoaning

muayyan davrdagi madaniyati mohiyatini nisbatan yaqqolroq aks ettiruvchi til hodisalarining yagona sohasidir".

Lugʻat boyligidagi oʻzgarishlar haqida toʻxtalar ekan, Ye.D.Polivanov shunday deydi: "lugʻaviy xarakterdagi oʻzgarishlarga (ayniqsa, til evolyutsiyasiga bogʻliq muammolarga) alohida tartibda yondashish lozim: ular haqida soʻz borar ekan, lugʻaviy yangiliklarning (ayrim soʻzlarning oʻlimi, yaʼni isteʼmoldan chiqishi, yangilarining paydo boʻlishi, soʻz maʼnolarining qisman yoki toʻla oʻzgarishi kabi hodisalar) katta qismi tegishli jamoaning ijtimoiy va kundalik-madaniy sharoitlaridagi oʻzgarishlarni bevosita yoki bilvosita aks ettirishini unutmaslik kerak (shundan kelib chiqqa holda, mazkur jamoa tafakkuridagi tushunchalar doirasining oʻzgarishi sodir boʻladi). Ijtimoiy va madaniy-tarixiy evolyutsiyaning mazkur toʻgʻridan toʻgʻri va spetsifik tabiiy qonuniyati, shunga mos ravishda til taraqqiyotida sodir boʻladigan boshqa hodisalarni ajratishga asos boʻla oladi".

Sossyur va O.Espersenlarning tilda bir tushunchani bir shakl orqali ifodalashga intilish kuzatilishi toʻgʻrisidagi fikrlarini davom ettirgan Ye.D.Polivanov buni til tejamkorligi bilan bogʻlaydi: "Gap shundaki, barcha tillarda kuzatiladigan, biroq hamma tilda har xil koʻrinishda namoyon boʻladigan tejamkorlik tamoyili oʻsha til egalari tafakkurida yuritiladigan bir maqsadli yagona tushuncha uchun bittadan ortiq soʻz (yoki soʻz birikmasi) sarflanishiga toʻsqinlik qiladi".

Ye.D.Polivanov shuningdek, XX asrda paydo boʻlgan soʻz yasallashining yangi usullarini ham (xususan, "abbreviaturali dorinomalarni") tejamkorlik tamoyili bilan izohlaydi.

Olimning fikricha, barcha tillarda ikki soʻzli birikmalarning bir soʻzga aylanishi kuzatiladi, qiyoslang: rus. *pravo ucheniye* – *pravoucheniye*, masalan: «*Im yeshe ne bylo vneseno pravoucheniye*»; frans. *viva mente* → *vivement*; ... va h.k. Bu jarayon til doim davom etadi, chunki, deydi Ye.D.Polivanov, ijtimoiy buyurtma tilda tez-tez uchraydigan tushunchalarning bir soʻz bilan nomlanishini talab qiladi.

Bundan tashqari, Ye.D.Polivanov tejamkorlik tamoyili oʻz ichiga soʻz va ifodalarning "eskirishi, charchab qolishi" ("iznashivaniye") degan tushunchani ham qamrab olishini taʼkidlaydi. Demak, individuum tomonidan yangi oʻrganilgan soʻz mumkin qadar aniqlik bilan boshida talaffuz etiladi. Biroq keyingi holatlarda, Ye.D.Polivanovning fikricha, asta-sekin talaffuz energiyasini tejash tendensiyasi sezila boshlaydi - "tanish tovushlar (unli va undosh) "nimgʻurma talaffuz etiladi", baʼzan esa (maxsus pozitsion va boshqa holatlarda) tashlab ketiladi, xolos. Tabiiy ravishda, shuning uchun ham, soʻz hattoki aynan bir individuumning yoki bir avlodning nutq amaliyoti davomida "eskirib qoladi". Shu sababli ham oʻsha avlodning kichik yoshdagilari boshlangʻich huquqlar asosida oʻz nutqiga tovush jihatdan "charchab qolgan" tez aytiluvchi dublet soʻzni - "standart andoza"ni oʻzlashtirib oladi va oʻzi ham uni qisqartirishni ("eskirtirishni") boshlaydi. Natijada barcha tillar tarixida uchraydigan shu xildagi hosilalar paydo boʻladi, soʻz birikmalari bir soʻzga aylanadi. Qiyoslang: *ille non habet passum* → frans. *il n'a pas* [fransuz tili tafakkurida bir soʻz sifatida idrok qilinadigan kompleks] [1,83].

L.Blumfild ham har xil sabablarga koʻra (ilm-fan va texnika taraqqiyoti, moda innovatsiyalari) tilda sodir boʻlgan leksik va boshqa turdagi lisoniy oʻzgarishlarni (tilda soʻzlarning eskirishi va oʻrnashib olishi, leksemalarning barcha turdagi transformatsiyalari hamda boshqa leksik hosilalar) soʻzshakllarning qoʻllanish chastotasi bilan bogʻliq holda tadqiq etadi. Shu kabi hamma oʻzgarishlarda birinchi navbatda shakl mazmunining ahamiyati koʻrsatiladi.

L.Blumfild (O.Espersen izidan borib) tildagi oʻzgarishlar leksik vositalarni tartibga solishga tomon yoʻnaltirilganligini taʼkidlaydi. Bunda L.Blumfild (I.A.Boduen de Kurtene va Ye.D.Polivanov kabi) tilning soʻzlarni qisqartirishga intilishini eʼtirof etadi. Biroq olim bu yerda talaffuz harakatlarining tejamkorligini nazardan chetda qoldiradi (I.A.Boduen de Kurtene konsepsiyasidagi fonatsion energiyani eslang.

Til tejamkorligining leksik sathdagi tadqiqoti mashhur fransuz olimi A.Martine tomonidan tildagi mavjud vositalar, jumladan, soʻz yasovchi morfemalar yordamida yangi soʻzlar yasallishi tahlilida namoyon boʻladi (202). Tilda umumlashtiruvchi xarakterga ega soʻzlarning mavjudligi, A.Martinening fikriga koʻra, tilda tejamkorlikning ifodalanishidan dalolat beradi. Masalan, qoʻshni soʻz bilan turli munosabatlarga kirish qobiliyatiga ega boʻlgan bitta soʻzning boʻlishi yanada tejamliroq hisoblanadi.

Til evolyutsiyasi natijasida leksik va fonetik sathlardagi oʻzgarishlar barobarida tilning grammatik qurilishida ham yangiliklar kuzatiladi.

Morfologik evolyutsiya sekin asta tilning grammatik shakllari tizimini sezilarli darajada oʻzgarishiga sabab boʻladi. Shuning uchun ham til evolyutsiyasi jarayonining turli davrlarida butunlay boshqa-boshqa grammatik qurilishga ega tillarni uchratamiz (qiyoslang: lotin va fransuz tillari yoxud got va ingliz tillari).

XX asr boshlarida tilshunos olimlarni rod grammatik kategoriyasi qiziqтира boshladi.

Gap shundaki, ayrim tillarda uchta rod (jen., muj., sr.) boʻlsa, boshqalarida ikkita (muj. va sr. yoki muj. [umumiy] va sr.), uchinchilarida esa umuman "rod" haqida tushuncha ham yuq. Shunisi ahamiyatliki, bir tushuncha turli tillarda ifodalanganda turli rod kategoriyasida namoyon boʻladi (qiyoslang: nem. der Stuhl

«stul», der Löffel «qoshiq» va frans. la chaise «stul», la chuière «qoshiq» va hokazo). Davr o'tishi bilan ayrim tillarda (roman, german tillari va b.) bir rod kategoriyasidan boshqa rodga osongina o'tgan otlarga ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Olimlar shuningdek, ko'zga tez-tez tashlanadigan rod shakllari o'rtasidagi tafovutlarning yo'qolib borishi, ya'ni farqli shakllarining bartaraf etilishini ham qayd etib o'tadilar.

Tejamkorlik tamoyilining morfologik sathda bunday shakldagi harakatini O.Espersen kompleks tarzda tushuntiradi (53). Jumladan, tilshunos tilning rodlar o'rtasidagi shakliy tafovutlarini bartaraf etishga bo'lgan tendensiyasi, kelishiklarning birlashishi (bunda gapdagi so'zning rolini tavsiflash uchun qat'iy so'z tartibini yetarli deb hisoblaydi), ikkilik sonining yo'qolishi ("oldingi ortiqcha farqlarning bartaraf etilishining har qanday ko'rinishi tilning taraqqiyotidan dalolatdir"), ortirma darajani ifodalash uchun maxsus shaklni yo'qotishga bo'lgan intilish ("qiyosiy va ortirma darajalar aynan bir xil ma'noni ifodalaydi") va hokazolarni tahlil ostiga oladi.

"O'zbek tiliga qiyoslangan rus tili grammatikasi" asarida Ye.D.Polivanov ham shu muammoga duch keladi [3,61]. O'zbek tili egalari uchun rus tilidagi grammatik rod kategoriyasini o'zlashtirish jarayonidagi jiddiy qiyinchiliklarni qayd etgan holda, tilshunos til o'rganuvchilarda "butunlay haqli tushunmovchilik" paydo bo'lishi haqida yozadi: "... nutq almashinuvining amaliy ehtiyojlarini mutlaqo oqlamaydigan bunday ortiqcha yuk (ona tili tafakkuri nuqtayi nazaridan) rus tili morfologiyasiga nima sababdan kiritilgan?"

Muammo sababini olim quyidagicha izohlaydi: agar rod kategoriyasi bo'lmagan tillarda, masalan, hali otni tanlamay turib sifatni aytish mumkin bo'lsa (qizil olma, hot dog), rus tilida grammatik rodni moslashtirish bilan bog'liq tafakkur jarayonlari muayyan energiyani talab qiladi. O'zbek tili esa, Ye.D.Polivanov fikricha, so'zlar o'rtasidagi aloqa rod kategoriyasi orqali ifolanadigan rus tilidan farqli o'laroq, qat'iy o'rnatilgan so'z tartibi yordamida (aniqllovchi aniqlanmishdan qat'iy oldinda tursa, rus tilida aniqllovchi aniqlanmishdan keyin ham kelishi mumkin) shu aloqaga erishadi.

Ye.D.Polivanov tejamkorlik tamoyili ta'sirini ko'plik tushunchasining "ko'p + predmet nomi" so'zlari yordamida emas, so'z tarkibida, ya'ni ko'plik son morfemasi orqali ifodalanishida ham kuzatadi. Ye.D.Polivanov shunday yozadi: "Negaki, bizning narsa haqidagi fikrimizga uning birlik yoki ko'pligi haqidagi fikr hamrohlik qiladi (ya'ni, son haqidagi umumiy tasavvur predmet haqidagi tasavvur tafakkuri ichida bo'ladi). Til tejamkorligi ko'plab tillarda son kategoriyasi ifodasining morfologik usulda qo'llanilishiga olib keladi, alohida so'z orqali ("ko'p + predmet nomi") emas, so'z tarkibida, ya'ni (ko'plik ma'nosiga ega) bir qator so'zlarda uchraydigan ko'plik son morfemasi yordamida ifodalanadi".

Shuningdek, "O'zbek tiliga qiyoslangan rus tili grammatikasi" asarida Ye.D.Polivanov rus va o'zbek tillari grammatikasini tasviriy metoddan foydalanib o'rganar ekan, modomiki, tilning istalgan holati bu - lingvistik omillarning to'xtovsiz dialektik evolyutsiyasidagi muayyan vaqt (momenti) hisoblanar ekan, "joriy va o'tkinchi" hodisalar haqida gapirmaslik mumkin emasligi haqida yozadi [3,61]. Bunday hodislarga misol qilib olim unverbatsion jarayonlarni (so'z birikmasi va so'z o'rtasidagi o'tkinchi hodislarni) tilga oladi va rus tilidagi predlogli birikmalarni va o'zbek tilidagi, masalan, balta bilən (yoki baltə minən), yoki davomlilikni ifodalovchi: bara jatyрман (shevalariga mos holda barvatman, barapmən, barjəppen, barvətmən, barutmə, barjəppen, barjatirman va hokazolarni misol qilib keltiradi. Bunda tejamkorlik omili tomonidan "uqtiriladigan" unverbatsion jarayonlar va shunga o'xshash "o'tkinchi hodisalar" barcha tillarda kuzatilishini olim alohida qayd etadi.

A.A.Potebnya ham tejamkorlik tamoyili masalalarini hammadan ham ko'ra ko'proq grammatik sathda tahlil qiladi. Uning fikricha, bir shaklning boshqa yangisiga o'zgarishiga sabab, yangi shakl tafakkur talablariga "ko'rinishidan nisbatan muvofiqlik" kasb etadi.

Sifatlardan otlarning yasali holatlarini o'rganar ekan, tilshunos bu hodisani tafakkur harakatlarning kamayishi deya izohlaydi. Zero, bevosita yoki predikativli atribut sifatida xizmat qilib sifatni anglatuvchi so'z har xil turdagi otlar oldidan ishlatilishi tafakkuridan faqat bir narsa yoki ko'plab bir turdagi narsalar oldidan ishlatilishi va natijada subyekt yoki obyektga aylanishi tafakkuriga o'tishi ham tafakkur harakatlarning kamayishi natijasidir, deya qayd etadi olim.

O'z tadqiqotlarida A.A.Potebnya tillardagi grammatik rodlarning bora-bora farqlanmaslik holatiga o'tishini ta'kidlaydi. Masalan, yangi fors tili umuman lingvistik rodlarni farqlamaydi, semit tillari esa faqat jinslarga (ayol, erkak) mos keluvchi grammatik rodlarni ajratadi. Uchchala rod ham, A.A.Potebnyaning fikriga ko'ra, faqatgina hind-yevropa tillarida uchraydi, biroq mazkur til oilasining ayrim tillarida (kelt tili, litva tili, roman tillarida) ham sredniy rodning yo'qolish holati kuzatilmoqda. Slavyan tillar guruhidagi sloven va velikorus tillarida (joy-joyi bilan) A.A.Potebnya sredniy rodni mujskoy rodga almashtirishga (yabloki, viny, «yablok sodovoy») bo'lgan intilish haqida so'z yuritadi. Sababini esa ularning tushunarsizligi bilan izohlaydi. Xususan, olimning yozishicha: "biz nega falon so'z faloncha tilda falon davrda u-bu rodga taaalluqli bo'lganligini tushuntira olmadik".

Lisoniy o'zgarishlarni, bir qator olimlar qanaqangi shakldagi qisqartirish bo'lmasin, so'zlarning, so'z birikmalarining, shakllarning, tovushlar va boshqalarning qo'llanilishiga ko'ra qisqartirishlarining bari tejamkorlik tamoyili nuqtayi nazaridan tahlil qilish maqsadga muvofiqligini ta'kidlashadi. Ko'rinib turibdiki, birinchi navbatda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan so'zlar, affikslar va so'z birikmalari azbaroi ko'p qo'llanilganligidan semantik sayqallanganligi sababli qisqarishga mahkum bo'ladi.

Nisbatan ko'p uchraydigan so'zlar o'z tabiatiga ko'ra nisbatan qisqaroq bo'ladi. Buning ustiga so'zning uzunligi va fonema birikmalarining chegaralanganligi o'rtasida - bir tomondan, ikkinchi tomondan esa, fonemalar sonining hajmi va ularning o'zaro birikuvi erkinligi o'rtasida ziddiyat mavjudligi kuzatiladi. Mazkur ziddiyat nisbatan ko'p qo'llaniladigan so'zlar uzunligining qisqarish jarayonlarining rivojlanishi sodir bo'lishiga va bir tomondan - fonemalarning o'zaro birikuvidagi cheklovlarining yo'qolishi, ikkinchi tomondan - ko'plab fonemalarning derivatsion hosildorligining va ularning o'zaro birikishi holatlarining o'sishiga olib keladi.

Bunday ziddiyat samarasi o'laroq, so'z uzunligining qisqarishi va tildagi fonemalar sonining o'sishi kuzatiladi.

I.A.Boduen de Kurtene, so'zning morfologik strukturasidan kelib chiqqan holda faqatgina o'zakdan keyin affiksga ega bo'lgan tillarni (ural oltoy tillari, fin-ugor tillari) ma'qul ko'rishini bildiradi. Bu tillarni olim o'zakdan oldin va keyin affikslari bo'lgan tillarga nisbatan kam psixik energiya sarfini talab qilganligi uchun "nisbatan sergak" tillar deb ataydi.

Sintaktik sathda "tejamli" fraza va "me'yoriy" yoki "tejamsiz" fraza o'rtasidagi farqqa e'tibor bermoq lozim. Mazkur tafovut shundan iboratki, ularda har xil darajadagi aniqlikda va maromda ma'lumot mazmuni yetkaziladi va ifodalanadi: tejamli frazada u kamroq aniqlikda, biroq bir maromda yetkaziladi.

Demak, zamonaviy ingliz tili sintaksisida ellipsisning rivojlanishidagi asosiy sabablaridan biri sifatida matnda takrorga yo'l qo'ymaslikka intilish ko'rsatiladi, bu esa ifoda hajmining qisqarishiga olib keladi. Mazkur jarayon o'zida suppressiya hodisasi tendensiyasini aks ettirib, reperezentatsiya va substitutsiya kabi hodisalar bilan birga bir butunlikni kasb etadi. Ellipsis (so'zning tushib qoldirilishi) - reperezentatsiya va substitutsiyalardan farqli o'laroq, sintaksisning ushbu jarayonlari orasida nisbatan faolligi bilan xarakterlanadi. Shu sababdan ham, ellipsis tadqiqotchi olimlarning diqqatini jalb qilib keladi.

"Murakkabdan osonga tomon harakat" tamoyili asosida, Ye.D.Polivanov so'zning alohida yakkalanish kabi potensial qobiliyati bilan xarakterlanishini ta'kidlab shunday yozadi - "...ya'ni, so'z nutq almashinuvi sharoitlarida muayyan komplekslar ishtirokisiz talaffuz qilinayotgan frazaning yagona tarkibiy qismi bo'la oladi. Masalan, so'roq gaplarda va ularning javobida so'zlarning yakka holda ishlatilishini solishtiraylik: - «Ты был в Москве?» - «Был» - «Был?» - «Да» - «Когда?» - «Вчера». Boshqacha qilib aytganda, aynan shu mezon asosida so'zga frazaning yoki gapning potensial minimumi deya ta'rif berish mumkin".

Bu yerda Ye.D.Polivanovning qarashlari G.Paul fikrlaridan bir-muncha farq qiladi. G.Paul o'zining "Til tarixi tamoyillari" asarida quyidagicha yozadi: "Gapni biz uzluksiz yaxlitlik a'zosi sifatida olar ekanmiz bunda uning to'ldirilishi haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Bunga dialogni misol qilib keltirish mumkin. Garchi dialogda qatnashuvchi shaxslar suhbatdoshi so'zlarini takrorlamasada, bu - to'ldirilish imkoniyatining mavjudligiga sabab bo'la olmaydi, chunki, dialog - uzluksiz yaxlitlik sifatida tahlil qilinishi kerak".

Boshqacha qilib aytganda, qisqarishga yuz tutgan ifodalarning mazmuni yaxlit birlik sifatida qaraladi, chunki uning tarkibidagi ayrim qismlar mazmuni keraksizga aylanadi. Bu kabi barcha tushib qoldiriluvchi so'zlar va morfemalarni qachonki so'z va morfema birikmalarida ularsiz ham ma'no yasalishi kuzatilsagina e'tiborsiz qoldirish mumkin. Dastavval ifodaning ichki shartlilik, ya'ni mazmun shartlilik, undan keyin esa tashqi shartlilik paydo bo'ladi.

Xuddi shu xususda N.YU.Shvedova ham o'z munosabatini bildirib, quyidagi misollarni keltiradi: «Kak nachal rabotat – ponemnogu otkladıval dengi na pokupku «Moskvicha» > otkladıval dengi na «Moskvicha» > otkladıval na «Moskvicha»// Ish faoliyatimni boshlashim bilan «Moskvich» sotib olish uchun kam-kamdan pul yig'a boshladim > "Moskvich" sotib olish uchun pul yig'a boshladim > "Moskvich" uchun pul yig'a boshladim. «Kak nachal rabotat – ponemnogu otkladıval na «Moskvicha» gapi muallif tomonidan soddalashtirilgan gap sifatida talqin qilinadi. Yana bir misol: «Pomogat bratu zanimatsya (gotovitsya) po arifmetike» > «Pomogat bratu po arifmetike» // "Ukamga arifmetikadan tayyorlanishga yordam berish" > "Ukamga arifmetikadan yordam berish". N.YU.Shvedovanning fikricha, bu turdagi "soddalashtirishlar" nutq ifodasining umumiy mazmunini tushunishga halal bermaganligi uchun ro'y berishi mumkin.

Ellipsisning nazariy asoslarini SH.Ballining lingvistik konsepsiyasidan qidirish maqsadga muvofiqdir. [4,416] Olim tilshunoslikda ilk bor "nol belgisi", "anglashiladigan belgisi" va ellipsis kabi tushunchalarni farqlash masalasini o'rta tashlaydi. Boz ustiga, tilshunos anglashiladigan belgi va elipsis o'rtasidagi bevosida munosabatni aniqlab berdi. Bunda anglashiladigan belgi lisonga, ellipsis esa nutqqa oidligi ta'kidlanadi. SH.Ballining fikricha, anglashiladigan belgi lisondagi ikki parallel tipning mavjudligiga

asoslanadi va soʻzlovchi (yozuvchi) uchun muayyan tanlovni nazarda tutadi. Buning barobarida anglashilgan belgi nutqqa tegishli aloqani ham oʻrnatadi. Ellipsis esa faqat nutqiy xarakterga ega. Bu - oʻzidan oldingi va keyingi kontekstda namoyon boʻladigan belgi boʻlib, nutqda anglashilgan belgiga mos keladi. SH.Balli tadqiqotlarida bu - nol belgili birlik deb ataladi. Nutqda hech qanday aktual maʼnoga ega boʻlmagan *Donnez!* [«Bering!»], *Regardez!* [«Qarang!»], *Mangez!* [«Tanovvul qiling!»] kabi situativ ellipsis bilan birga SH.Balli kontekstual ellipsislarini ham qayd etadi: *CHet élève à quinze ans et chelui – chi seize* [«Bu oʻquvchi – oʻn besh yoshda, ana unisi esa - oʻn oltida»]. *Madame X. a deux enfants, l’un de six ans, l’autre (m.e. de quatre ans)* [«Madam X. ning ikki bolasi bor, biri – olti yoshda, ikkinchisi toʻrtta» (yaʼni, "toʻrt yoshda")] [4,418]. Oxirgi misollarda situatsiya orqali aniqlanadigan predmet yoki protsess emas, balki nutq kontestidagi voqelangan tushunchaga duch kelamiz.

Grammatikada ellipsis-gaplarni muayyan "pozitsion gap modellari" tavsiflaydi. Mazkur tushunchani ilk bor T.P.Lomtev kiritgan boʻlib, olim shunday yozadi: "Har xil soʻzli formalardan iborat gap oʻzida shu soʻzlar mujassam pozitsiyalar tarkibini namoyon etadi. Alohida soʻzli shakl gapning pozitsion tarkibidagi pozitsion boʻgʻin hisoblanadi." Shunga mos holda, pozitsion tarkibli gapning muayyan turi "gapning pozitsion modeli"dir.

Tilning sintaktik sathiga oid zamonaviy tadqiqotlarda oʻziga xos atamalar paydo boʻlmoqda. Shuni alohida qayd etish joizki, ellipsis gaplarning grammatik maʼnosini hech bir atama toʻliqligicha ochib bera olmaydi, zero mazmun-mundarijasiga koʻra har bir atama doim nisbiylik kasb etadi, ular qaysidir maʼnoda shartlidir. Boshqa soʻz bilan aytganda, bir atama hajmi jihatdan koʻpmi, kammi farqlanishi mumkin. Biroq, nima boʻlganda ham tanlangan atama oʻzi bildirayotgan tushunchani anglab olishda hech qancha qiyinchilik tugʻdirmasligi lozim. Ellipsisning grammatik mohiyatidagi turli xususiyatlarni aks ettiruvchi atamalar orasida, avvalambor, "Lingvistik atamalar lugʻati"dagi («Slovar lingvisticheskix terminov») "Ellipsis" nomli lugʻaviy maqolaga kiritilgan kichik semantik hajm atamasi sifatida ifodalangan "situativ ellipsis" bilan bir qatorda "kontekstual ellipsis"ni uchratish mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, "situativ ellipsis" atamasi axborotning aniqligiga koʻra toʻla talabga javob bermaydi. Aytaylik, kontekstual talablarga koʻra soʻz tushirib qoldirilishini bildiradigan "kontekstual ellipsis" atamasi elliptik gap tarkibining sintaktik mohiyatini yetarlicha aniqlikda ochib bersa, "situativ ellipsis" atamasi orqali, avvalambor, qanday sintaktik strukturalar tasniflanishi nomaʼlum. Haqiqatdan ham, "situatsiya" atamasidagi keng maʼno "situativ" determinatoriga ham koʻchib oʻtadi, va bu maʼno "situativ ellipsis" atamasida ham mujassamlashib uni semantik jihatdan mujmal, ayrim hollarda noaniq qilib yuboradi.

Buning ustiga tahlil qilinayotgan atamani tushuntirishda "kontekst" va "situatsiya" atamalarining qiyosiy maʼnosi semantik jihatdan ayrim hollarda oʻxshashligi bilan qiyinchilik tugʻdiradi. Bu esa "kontekstual ellipsis" va "situativ ellipsis" atamalarini bir-biridan farqlashga toʻsqinlik qiladi. Gap shundaki, ular optimal holatda turli grammatik xususiyatlarga ega va sintaktik sathda boshqa-boshqa asoslardan hosil boʻluvchi elliptik strukturalarning ikkita gurux koʻrinishidagi terminologik ziddiyatini hosil qilishi kerak.

Shunisi diqqatga sazovorki, L.S.Barxudarov elliptik gaplarni nol variantli soʻz eksplikatsiyasi usuliga koʻra tasniflaydi va mumkin boʻlgan ikki turli gaplarni ajratadi: 1) sintagmatik toʻldiriladigan va 2) paradigmatic toʻldiriladigan gaplar. Koʻrinib turibdiki, olim yuqorida qayd etilgan atamalardan foydalanmagan.

Bugungi kunga kelib, elliptik gapni oʻrganishda ikki xil yondashuvni kuzatish mumkin:

1) ellipsis - bu gapning tarkibiy jihatdan majburiy elementlari sifatida faqat ega va kesimning tushib qoldirilishi jarayoni va

2) har qanday elementi (hoh majburiy tarkibiy qismi boʻlsin, hoh fakultativ boʻlsin) tushirib qoldirilgan gap - elliptik gap hisoblanadi.

Bundan kelib chiqadiki, tarkibiy elementlaridan birortasi (birinchi darajali yoki ikkinchi darajali boʻlaklar) tushirib qoldirilgan gapning eksplitsit tarkibi kontekst asosida (sintagmatik) vositasida tiklansa yoki muntazam formal-grammatik sintaktik qonuniyatlar asosida (paradigmatik) tiklansa bunday gaplarni elliptik gaplar deb atash lozim, zero ellipsis - bu "osongina tiklanadigan ifoda elementining (aʼzosining) tushirib qoldirilishidir". Yanada aniqroq aytadigan boʻlsak, istalgan sathdagi eksplitsit ifodalangan elementning tushib qoldirilishi ahamiyatli boʻlgan va shunga muvofiq uning tiklanishi mumkin boʻlgan har bir gap elliptik gapdir.

Quyidagi semantik juftliklardagi tipik eliptik gaplar va ularning toʻliq variantlarini solishtiraylik:

She seemed insensible. – She seemed to be insensible.

He came in, eyes open and ugly. – He came in, eyes being open and ugly.

Early morning. – It is early morning.

Nobody around. – There is nobody around.

Perfect silence. – It is perfect silence.

The boy we spoke about is not – The boy about whom we spoke is not guilty. guilty.

Glass cracks when heated. – Glass cracks when it is heated.

So'nggi paytlarda polifunksional sintaktik elementlarning ahamiyatini aniqlash uchun kontekstning roli umume'tirof xususiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda istalgan boshqa sintaktik birliklar kabi gap o'zi tegishli bo'lgan nutqdagi boshqa gaplar bilan aloqadorlikda tadqiq etilishiga hech kim e'tiroz bildirmaydi. N.D.Arutyunovanning obrazli ifodasiga ko'ra hamma gaplar o'rtasida " mantiqiy aloqa ko'priklari tashlangan" . L.Elmslev esa "istalgan mohiyat, shunga muvofiq istalgan belgi mutlaq emas, nisbiydir va faqat kontekstdagi o'rniga ko'ra aniqlanadi".

Ingliz tilshunosligida ham to'liqsiz gaplarni bir tarkibli gaplardan kontekst yordamida farqlashga bir necha bor urinishlar bo'lgan. Masalan, R.Xadelstonning qayd etishicha, "to'g'risi, unchalik universal bo'lmagan, farqlash vositalaridan biri shundan iboratki, gap ma'nosining kontekst va situatsiyaga bog'liqligini aniqlash lozim. Bir tarkibli gaplardan farqli o'laroq, to'liqsiz gaplarning, mazmunan tugallanganligi kontekst va situatsiyaga bog'liq bo'ladi".

Demak, bir biriga yaqin sintaktik birliklar orasidagi farq faqat ularning kontekst bilan mazmunan bog'liqligi asosida quriladi.

Bu kabi bir taraflama yondashuvning kamchiliklari, bizningcha, quyidagilardan iborat :

Birinchidan, bir biri bilan mazmunan bog'lanmagan gaplarning (bu yerda - bir tarkibli gaplar) borligi bilvosita tan olinmoqda.

Ikkinchidan, bir tarkibli gaplar doim mazmunan tugallangan deb hisoblanishi ochiqchasiga tasdiqlanmoqda. Biroq, faktiy material tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur e'tiroflarning birortasi ham so'zsiz qabul qilinishi mumkin emas.

Ularining birinchisidagi xatolik shundan iboratki, kontekstning sarhadlari aniqlanmagan. Bir tarkibli gaplar to'liqsiz gaplardan farqli o'laroq, ikki tomonlama kontekstual aloqaga ega bo'ladi, ya'ni ham chap, ham o'ng kontekst bilan aloqa qura oladi. Bir tarkibli gapning kontekstdan mustaqil bo'lib ko'ringanligining sababi kontekstual aloqaning aynan mana shu ikki tomonlama yo'nalishga ega bo'lganligidadir. Solishtiring:

Miss Adams died in her sleep last night. An overdose of veronal.

Two women and a man, – said Sir Henry. – The old eternal human triangle.

Silence. Lady's Whalebone's gaze, passing from one to the other, had come to rest on me.

A whack and a shout, and the donkeys moved off.

Boshidagi ikkita misolda birtarkibli gapning mazmuni o'zidan oldingi gaplarsiz tushunarsiz bo'lar edi. Zero, birinchi qismi sabab mazmunini bildirsa, ikkinchi qismda natija-oqibat munosabatlari ifodalanmoqda. Uchinchi va to'rtinchi gaplarda bir tarkibli gaplar go'yoki kontekstga bog'liq emasday tuyuladi. Biroq aslida, ular o'ng tomon kontekst bilan aloqa quradi, unda tushuntirish va oqibat ifodalangan bo'lib qayta yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Agar kontekst istalgan tahlil sathidagi o'rganilayotgan birlik mazmuni ifodalanadigan sharoitlar yig'indisi sifatida qaraladigan bo'lsa, elliptik gap mazmuni ham xuddi to'liqsiz gap mazmuni kabi bir xilda kontekstga bog'liq ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Xullas, mazmuniga ko'ra kontekstga bog'lilik bir tarkibli gapni to'liqsiz gapdan ajratishda farqlovchi alomat bo'la olmaydi. Zero, butunlay mazmunan avtonom gaplarning o'zi yo'q.

Shuningdek, bir tarkibli gaplarning mazmunan tugal fikr ifodalashi to'g'risidagi e'tirofda ham asos yo'q. Bir tarkibli gaplar istalgan boshqa turdagi gaplardek mazmunining tushunarli bo'lishi uchun kontekst zarur bo'ladigan sinsemantik elementlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. The irony of it! degan elliptik gapda olmoshning mazmuni faqat kontekst orqaligina aniq bo'ladi. T.I.Silmanning fikriga ko'ra, gap tarkibida sinsemantik elementlarning bo'lishi gapning, umuman, sinsemantik xarakterda bo'lishini ta'minlaydi.

Bir tarkibli va to'liqsiz gaplarning kontekstga bog'liqligiga oid bir muncha boshqa yondashuvni biz R.Djeykobs qarashlarida uchramiz: "Elliptik gap nutq yaxlitligi ichidagi boshqa gap bilan birikma hosil qiladi va turli sintaktik vazifalarni bajarishi mumkin. Bir tarkibli gap nutq zanjiridagi boshqa gaplar bilan yaqin aloqada bo'lsada, hech qachon birikma hosil qilmaydi". Bu tahlilni to'g'ri deya olamiz: Bir tarkibli elliptik gaplarda ham, to'liqsiz elliptik gaplarda ham kontekstga tarkibiy jihatdan bog'liqlilik haqida so'z bormoqda. Biroq muallif amaliy tahlilida bir tarkibli va to'liqsiz gaplarning kontekst bilan tarkibiy aloqadorligiga e'tibor qaratmay, to'liqsiz gaplarning boshqa gaplar bilan ma'noviy birikuv hosil qilishiga urg'u beradi. Fikrimizga olimning quyidagi g'oyasi dalil bo'la oladi: "elliptik gapdagi axborotning ma'noviy butunligi voqelanadigan" nutqiy birlik - minimal kontekst sifatida baholanadi.

Keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, bir tarkibli va to'liqsiz gaplar o'rtasidagi tavofutni aniqlashda faqat ma'noviy mezonga asoslanish muammoning yechimiga nuqta qo'ya olmadi. Z.Rasulovning tadqiqotida elliptik gaplarni ajratishda nisbatan formal (kontekstual-sintaktik) metoddan va shunga mos holda bu gaplarning o'ziga o'xshash sintaktik birliklardan ajratish metodidan foydalanilgan. Bunda boshlang'ich asos sifatida deskriptiv yo'nalish strukturalistlari tomonidan ilgari surilgan gap ta'rifi olinadi. "Gap - bu hech

qanday grammatik shakl bilan tarkibiy bog'lanmaydigan grmhammatik shakldir: tashkil etuvchi (a constituent) bo'la olmaydigan birlikdir (a constitute)".

Ikkinchi boshlang'ich asos sifatida N.N.Amosovning fikriga tayangan holda tarkibida fe'l ishtirok etmagan minimal sintaktik qurilma hisoblanuvchi sintaktik kontekst tushunchasi olinadi.

Shunday qilib, gaplar o'rtasida mavjud bo'lgan munosabatlar ichidan sintaktik aloqa tahlilga tortiladi.

Elliptik gaplarini o'rganishda to'liqsiz gaplarning kelib chiqishi va shakllanishiga oid savolning yechimi juda muhim hisoblanadi. Chunki, bu yerda gapning to'liqsizni belgilovchi asos sifatida nimani olishning o'zi aniq emas. Shuning uchun ham ayrim sintaksist olimlarning ushbu masalaning yechimiga shubha bilan qarashlari tabiiy hol. Masalan, tilshunos I.A.Popovanning quyidagi pessimistik xulosasini qiyoslang: "Biz to'liqsiz gaplarga grammatik asosga qurilgan qoniqarli ta'rif berish mumkin emasligini va gaplarni to'liqsiz va to'liq gaplarga ajratishning yagona, aniq mezonini aniqlash imkoni yo'qligini tan olishga majburlamiz".

Albatta, kommunikativlik nuqtayi nazaridan nutqda ishlatilayotgan istalgan gapni to'liq deb hisoblash mumkin, zero u aniq bir vaziyatda nutqdagi aloqa qurish chog'ida yetkazilishi kerak bo'lgan ma'lumotni yetkazmoqda. Haqiqatdan ham, aks holda u gap bo'la olmas edi, chunki aloqa qurish vazifasini (asosiy vazifani) bajarmagan bo'lar edi. Aslida kontekst tarkibidagi har bir gap o'zining tarkibiy xususiyatlari qanday bo'lishiga qaramay tegishli ma'noviy to'liqlikka, tugal fikrga ega bo'ladi. Aks holda nutq jarayoniga kiritilayotgan (axborot to'liqligi yetarli bo'lmagan) gaplar muayyan ma'lumotni yetkazish vazifasini talab darajasida bajarmaganligi uchun o'zaro muloqotga erishishning imkoni bo'lmas edi.

Bizning fikrimizcha, kontekst tarkibida bo'lgan istalgan gap ma'no to'liqligi nuqtayi nazaridan to'liq sanaladi, ya'ni, muayyan nutq vaziyatida har bir gap (tarkibidan va bajaradigan vazifasidan qat'iy nazar) mazmun planida to'liqdir. Shundan kelib chiqib, A.I.Nazarovning "gapning to'liqsizligi uning mazmun jihatidan ma'noviy tugallanmaganligi bilan belgilanadi" degan e'tirofi o'rinsizdir. Uning fikricha, "obyektiv ma'lumotlar bilan tasdiqlangan tugal ma'no - to'liqsiz gaplarni ta'riflash uchun asos hisoblanadi va tadqiq qilinayotgan gapning to'liqligini belgilovchi mezonlar shu asosda qurilishi lozim". Bu turdagi boshlang'ich qoidalar elliptik belgili gaplar ma'nosini subyektiv baholashga asoslangan holda grammatik hodisalarni izohlashga olib keladi. Bunday intuyitiv lingvistik qarashlar so'zsiz shubhali xulosalarga sabab bo'ladi.

Buning ustiga A.I.Nazarov yondashuvlarining xatoligini gapni kontekst muhitidan ayro tahlil qilinishida ham ko'rish mumkin. Darhaqiqat, istalgan gapning ma'noviy tugallanganligini kontekstdan ajratib olingan tahlil asosida aniqlashni tasavvur qilish qiyin. Tilshunos I.A.Popovanning mulohazalari shu o'rinda diqqatimizni tortadi: "Agar yakka holda ajratib olingan gapning to'liqsizligini belgilovchi mezon sifatida uning ma'noviy tugallanmaganligi hisoblanadigan bo'lsa, bizning deyarli barcha nutqimiz, faqat og'zaki nutq emas, ayniqsa, dialogik nutq, balki kitobiy-yozma nutq ham - ma'no jihatidan tugallanmagan "to'liqsiz" gaplardan iborat bo'lar edi. Axir muloqot nutqidagi formal to'liq gaplarning asosiy qismi kontekstdan ajratib olinganda kontekst ichidagi ma'noviy tugallanganlikni bera olmaydi".

Shu sababli ham, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, elliptik sintaksisni o'rganar ekanmiz, predikativlik kategoriyasiga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Mantiqiy kategoriyadan farqli o'laroq, sintaktik kategoriyaning o'ziga xos grammatik shakllanish xususiyati mavjud. Subyekt va predikatning mantiqiy tushunchalari gap tarkibida voqelangan holda ega va kesimning grammatik tushunchalari orqali namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, predikativlik (nutq jarayoni birligini farqlovchi belgi sifatida) bu gapga xos xususiyat bo'lib uning mohiyati uchun zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Demak, predikativlik bu biror obyektning o'z mavjudligini bildiruvchi tushuncha bilan aloqasi bor/yo'qligi tasdiqlashni o'z ichiga olgan munosabatlarni belgilovchi tushunchadir. Tildagi predikativ munosabatlar mazmunini biror narsaning biror narsa bilan aloqadorligi, ya'ni istalgan nutqning ikki zaruriy komponentlari aloqadorligi bor/yo'qligini tasdiqlash belgilaydi. Ega va kesim sintaktik munosabatga kirish barobarida predikativli kompleks yuzaga keladi. Bu esa turli xildagi derivatsion transformatsiyalar (redundant va elliptik) shakllanishiga zamin yaratadi. Predikativli kompleks tarkibidagi ikki komponent munosabatlari eksplikativ xususiyatga ega nominativ va designativ vazifalarni belgilovchi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshadi. Substitut va uning antetsedentini identifikatsiyalash uchun ot va fe'lning eksplikativ va designativ vazifalar bilan aloqasi muhim. Bunda fe'lning eksplikatsiyalashish vazifasi adresatning ot denotati to'g'risidagi ma'nosiga yangilik kiritadi, uning ma'nosini oydinlashtiradi. Eksplikativ vazifani bajargan holda fe'l designatning (ot yoki substitut) designatori ro'lida namoyon bo'ladi.

Fonetik tizimdagi o'zgarishlar boshqa sathlarni ham chetlab o'tmay qolmaydi. Demak, morfologik evolyutsiya fonetik tizim evolyutsiyasi bilan bog'liq holda ro'yberadi va bil'aks, fonetik o'zgarishlar morfologik o'zgarishlarga olib keladi. Fonetik va morfologik evolyutsiyaning bir biri bilan o'zaro bog'liqligiga (muvofiqlashishiga) yorqin misol tariqasida tilning oldingi taraqqiyot davri bilan hozirgi, ayniqsa, hozirgi nutq jarayonining solishtirilishi natijasida paydo bo'ladigan tarixiy-lisoniy manzarani keltirish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Поливанов Е.Д. Статьи по общему языкознанию. –М.: Наука, 1968. –С.100-119
2. Поливанов Е.Д. Русский язык сегодняшнего дня // Литература, кн.4 [Институт языка и литературы]. –М.: Госиздат, 1928в. –С.167.
3. Поливанов Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком. –Ташкент: Госиздат, 1934.
4. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. –М.: Изд-во иностр. лит., 1955.
5. Абдуазизов А. А. и др. Общее языкознание. – Ташкент: НУУ, 2003. – 163 с.
6. Бушуй А.М. Язык и действительность. –Ташкент: Фан, 2005. – 144 с.
7. Сафаров Ш. Когнитив тилишунослик. – Жиззах: «Сангзор», 2006. – 92 б.
8. Сафаров Ш. Прагматингвистика. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 286 б.
9. Rasulov, Z. (2023). Принцип когнитивной экономики как важный фактор в передаче информации. *Центр научных публикаций (buxdu. Uz)*, 42, 42.
10. Rasulov, Z. (2022). Об объекте исследования когнитивной семантики. *Центр научных публикаций (buxdu. Uz)*, 8(8).
11. Rasulov, Z. (2022). О дискурсивном анализе в современной лингвистике. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 25(25).
12. Sulaymonbekovna, Q. N. (2021). Cognitive dissonance and pragmatic influence, *academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 902-908.
13. Kobilova, N. S. (2016). Literary interpretation of social psychology in the novel " martin eden". *Worldscience*, 4 (3 (7)), 52-53.
14. Sulaymonovna, Q. N., & Abduxolqovna, R. M. (2023, May). Structure of the linguistic category" characteristics of a human". In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 151-153).
15. Sulaymonbekovna, Q. N., & Raimovna, I. G. (2021). Cognitive dissonance and pragmatic influence. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 902-908.
16. Rasulov, Z., & Murtazoyev, O. (2024). The use of intertextuality in language. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 45(45).
17. Erkinovna, Y. F. (2024). Modern Learning Methods and the Effectiveness of the Communication Maxims in Education. *Miasto Przyszłości*, 55, 1133–1136. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/5816>
18. Yuldasheva, F. (2024). Gricean maxims of conversational cooperation. *Models and Methods in Modern Science*, 3(3), 57–61. <http://www.econferences.ru/index.php/mmms/article/view/13340>
19. Rasulov, Z. (2023). Xushmuomalalikning nutq odobida ifodalanishi. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 43(43).
20. Yuldasheva, F. (2023). Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq masalalari. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 31(31).
21. Erkinovna, Y. F., & Khakimovna, K. N. (2024). How to develop critical thinking skills in students. *innovation in the modern education system*, 4(37), 214-216.
22. Erkinovna, Y. F., & Nurmatjonovna, M. S. (2024). Language and its students: the history of linguistics. *innovation in the modern education system*, 4(37), 276-281.
23. Кобилова Н. Художественный психологизм и принцип эпического изображения. *международный академический вестник Учредители: Автономная некоммерческая организация "Исследовательский центр информационноправовых технологий" ISSN: 2312-5519* <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=38533356>
24. Kobilova Nargisa Suleymanovna *Literary psychology and style theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука ISSN: 2308-4944eISSN: 2409-0085* <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41328882>
25. Kobilova Nargisabegim Sulaymonbekovna *Benefits of using songs in teaching foreign languages to young learners* <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=35081671>